


### 3-usul.



| Qa-dam | Amallar                     | P   | i | Shart tekshirish       |
|--------|-----------------------------|-----|---|------------------------|
| 1      | $P=1$                       | 1   |   |                        |
| 2      | $i=1$                       | 1   | 1 |                        |
| 3      | $P=P*i$<br>$i=i+1$<br>$i>5$ | 1   | 1 | $2>5$ , yo'q (yolg'on) |
| 4      | $P=P*i$<br>$i=i+1$<br>$i>5$ | 2   | 2 | $3>5$ , yo'q (yolg'on) |
| 5      | $P=P*i$<br>$i=i+1$<br>$i>5$ | 6   | 3 | $4>5$ , yo'q (yolg'on) |
| 6      | $P=P*i$<br>$i=i+1$<br>$i>5$ | 24  | 4 | $5>5$ , yo'q (yolg'on) |
| 7      | $P=P*i$<br>$i=i+1$<br>$i>5$ | 120 | 5 | $6>5$ , ha (rost)      |




- 1 dan  $n$  gacha bo'lgan sonlar ichidan faqat 5 ga karrali sonlar yig'indisini hisoblash algoritmini tuzing.
- $y = \sin 0 + \sin 0,1 + \sin 0,2 + \dots + \sin n$  ifoda qiymatini hisoblash algoritmini tuzing.
- 3 xil takrorlanish tuzilmalaridan foydalanib  $P=(2+2)*(2+3)*(2+4)*(2+5)$  ko'paytmani hisoblash algoritmini tuzing.
- $y = 2x^3 + 1$  funksiyasini  $x$  ning  $[-3; 5]$  oraliqdagi butun qiymatlarida hisoblash algoritmini blok-sxema shaklida tuzing.

## 24-DARS. ARALASH (KOMBINATSIYALASHGAN) ALGORITMLAR

Tarkibida bir necha turdag'i algoritmlar qatnashgan algoritmga **aralash** (kombinatsiyalashgan) **algoritm** deyiladi.

Aralash algoritmlarga quyidagilar misol bo'ladi.

**1-masala.** Sinfda 25 nafar o'quvchi bor. Qancha o'quvchi informatikadan "a'lo" baho olganligini aniqlash algoritmi tuzilsin.



Masalani yechishda tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi algoritmlardan foydalanildi.

**2-masala.** Berilgan ikkita natural sonning eng katta umumiyo bo'lувchisi (EKUB)ni topish algoritmini so'zlar va blok-sxema yordamida ifodalang.

Bizga avvaldan ma'lumki, Yevklid algoritmi aynan aralash algoritmiga misol bo'la oladi.

Quyida keltirilgan ikkita natural sonning eng katta umumiyo bo'lувchisi (EKUB)ni topishning Yevklid algoritmi ham barcha natural sonlar uchun o'rinnlidir.

A va B natural sonlarning eng katta umumiyo bo'lувchisi topilsin:

1) boshlansin;


2) agar A = B bolsa, N natija deb olinsin va 6-bandga o'tilsin;


3) A va B sonlarning kattasi aniqlansin;

4) A va B sonlarning kattasi o'zi bilan kichik sonning ayirmasiga teng deb olinsin;

5) 2-bandga o'tilsin;

6) tugatilsin.





**3-masala.**  $ax^2 + bx + c = 0$  ko'rinishidagi kvadrat tenglamaning yechimlarini topish algoritmiga mos blok-sxema tuzing.

### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



- Qanday algoritmlar aralash algoritm deb ataladi?
- Aralash algoritmlarga oid hayotiy misollar keltiring.
- Aralash algoritmlardan qayerlarda foydalanish mumkin?
- Aralash algoritmlar tarkibida qanday algoritmlar bo'lishi mumkin?

### UY VAZIFASI



- 8 ta turli son berilgan. Ular orasidagi musbat sonlar ko'paytmasini hisoblash algoritmini tuzing.
- Sinfda 18 nafar o'quvchi bor. Qancha o'quvchi matematika fanidan "yaxshi" baho olganligini aniqlash algoritmi tuzilsin.
- 12 ta son berilgan. Manfiy sonlar va toq sonlar yig'indisini toping.